YAPON JAMIYATIDA “OMOTENASHI” KONSEPSIYASIYASI VA UNING MADANIY AHAMIYATI

Baxtiyorova Ruxshona
SamDCHTI, Sharq tillari fakulteti,
ilologiya va tillarni o’qitish:
yapon tili yo’nalishi 1- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21301469

Annotatsiya: Mazkur maqolada yapon jamiyatining muhim madaniy qadriyatlaridan biri hisoblangan “Omotenashi” konsepsiyasining mazmun-mohiyati, tarixiy shakllanishi hamda zamonaviy Yaponiya jamiyatidagi o’rni tahlil qilinadi. Shuningdek, omotenashi falsafasining xizmat ko’rsatish madaniyati, ijtimoiy munosabatlar va milliy qadriyatlar tizimiga ta’siri yoritiladi. Tadqiqot davomida omotenashining yapon xalqining mehmondo’stlik an’analari, hurmat va e’tibor tamoyillari bilan uzviy bog’liqligi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqola natijalari ushbu konsepsiyaning Yaponiya madaniyatini anglash hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so’zlar: Omotenashi, Yaponiya, mehmondo‘stlik, yapon madaniyati, xizmat ko‘rsatish madaniyati, milliy qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot.

KIRISH

Globallashuv sharoitida turli xalqlarning milliy qadriyatlari va madaniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o’rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Yaponiya jamiyati o’ziga xos madaniyati, ijtimoiy qadriyatlari va xizmat ko’rsatish an’analari bilan dunyo miqyosida alohida e’tirof etiladi. Ushbu qadriyatlar orasida "Omotenashi" konsepsiyasi yapon xalqining mehmondo’stlik falsafasi va insonlar o’rtasidagi hurmatga asoslangan munosabatlarini ifodalovchi muhim madaniy tushunchalardan biridir. Omotenashi nafaqat mehmonni samimiy kutib olish, balki uning ehtiyojlarini oldindan anglash, beg’araz xizmat ko’rsatish va har bir tafsilotga e’tibor bilan yondashishni ham anglatadi. Mazkur konsepsiya qadimiy yapon an’analari, xususan choy marosimi madaniyati bilan chambarchas bog’liq bo’lib, bugungi kunda mehmonxona, restoran, transport, savdo va boshqa xizmat ko’rsatish sohalarida keng namoyon bo’lmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi Yaponiya jamiyatida Omotenashi konsepsiyasining mazmun-mohiyatini, tarixiy shakllanishini hamda uning zamonaviy madaniy va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida omotenashining yapon xalqining milliy mentaliteti, xizmat ko‘rsatish madaniyati va madaniyatlararo muloqotdagi o’rni ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yapon jamiyatida Omotenashi konsepsiyasi madaniyatshunoslik, sotsiologiya, antropologiya, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalarida keng o’rganilgan ilmiy mavzulardan biridir. Mazkur tushuncha nafaqat mehmondo’stlikni, balki yapon xalqining milliy mentaliteti, axloqiy qadriyatlari va kommunikativ madaniyatini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida baholanadi. Shu sababli omotenashi turli fanlar nuqtayi nazaridan tadqiq etilib, uning tarixiy shakllanishi, falsafiy asoslari va zamonaviy jamiyatdagi amaliy ahamiyati yuzasidan ko’plab ilmiy ishlar yaratilgan. Omotenashi konsepsiyasining shakllanishi ko’pincha XVI asrda yashab ijod qilgan buyuk choy ustasi Sen no Rikyou faoliyati bilan bog‘lanadi. U choy marosimini oddiy marosim emas, balki insonlar

o‘rtasidagi hurmat, samimiylik va ruhiy poklikni ifodalovchi madaniy qadriyat sifatida talqin qilgan. Rikyū tomonidan ilgari surilgan wa (uyg’unlik), kei (hurmat), sei (poklik) va jaku (xotirjamlik) tamoyillari keyinchalik omotenashi falsafasining asosiy mezonlariga aylangan. Choy marosimida mezbon mehmonning ehtiyojlarini oldindan his etishi, qulay muhit yaratishi va buni hech qanday manfaat kutmasdan amalga oshirishi omotenashi g‘oyasining amaliy ifodasidir. Yapon antropologi Takie Sugiyama Lebra o’z tadqiqotlarida yapon jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlar, xulq-atvor me’yorlari va kollektiv qadriyatlarni chuqur tahlil qilgan. Olim omotenashi konsepsiyasini yapon madaniyatidagi hurmat, kamtarlik va boshqalarga nisbatan mas’uliyat hissi bilan bog’laydi. Uning fikricha, yapon jamiyatida insonning boshqalarga bo‘lgan e’tibori va o’zini jamoadan ustun qo‘ymasligi omotenashi tamoyillarining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Britaniyalik yaponshunos Joy Hendry esa yaponlarning kundalik turmushi, urf-odatlari va ijtimoiy muloqot madaniyatini o‘rganar ekan, omotenashini insonlar o’rtasidagi ishonch va o’zaro hurmatni mustahkamlovchi madaniy qadriyat sifatida tavsiflaydi. Tadqiqotlarda xizmat ko’rsatish sifati faqat texnik jarayon emas, balki mijozga nisbatan samimiy munosabatning ifodasi ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Roger J. Davies va Osamu Ikeno Yaponiya madaniyati va jamiyatig bag’ishlangan ilmiy ishlarida omotenashining yapon xalqining milliy xarakteri bilan uzviy bog‘liqligini ko’rsatadilar. Ularning fikriga ko’ra, omotenashi nafaqat mehmondo’stlik, balki insonning ehtiyojlarini oldindan sezish, mayda tafsilotlargacha e'tibor berish va xizmatni mukammal darajada tashkil etishni ham anglatadi. Bu jihatlar Yaponiyaning xalqaro miqyosdagi ijobiy imijini shakllantiruvchi omillardan biri sifatida baholanadi. Bundan tashqari, Okakura Kakuzouning "The Book of Tea" asarida choy marosimining estetik va falsafiy asoslari yoritilib, unda soddalik, go’zallik, uyg’unlik va mehmonga bo’lgan samimiy munosabat omotenashi ruhining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Mazkur asar omotenashining madaniy ildizlarini o’rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. So’nggi yillarda omotenashi konsepsiyasi turizm va mehmonxona biznesi bo’yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham keng yoritilmoqda. Xususan, Japan National Tourism Organization (JNTO) tomonidan chop etilgan materiallarda omotenashi Yaponiyaning milliy turizm brendini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish, mijoz ehtiyojlarini oldindan anglash va samimiy munosabat mamlakat turizm sohasining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o’ynashini qayd etadilar. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, omotenashi konsepsiyasi faqat mehmondo’stlik tushunchasi bilan cheklanmaydi. U yapon xalqining tarixiy tajribasi, estetik qarashlari, axloqiy tamoyillari va ijtimoiy munosabatlarini o’zida mujassamlashtirgan murakkab madaniy fenomen hisoblanadi. Mazkur tadqiqot sifat tadqiqot metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tavsifiy, tarixiy, qiyosiy va interpretativ metodlardan foydalanildi. Birinchi bosqichda omotenashi konsepsiyasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar hamda rasmiy manbalar o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda omotenashining tarixiy rivojlanishi va falsafiy asoslari tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda esa ushbu konsepsiyaning zamonaviy Yaponiya jamiyatida, xususan xizmat ko’rsatish, turizm, savdo va kundalik ijtimoiy munosabatlardagi namoyon bo‘lish shakllari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy asosini yapon madaniyati, antropologiyasi va sotsiologiyasiga oid ilmiy manbalar tashkil etadi. Olingan natijalar tizimli tahlil qilinib, omotenashi konsepsiyasining madaniy va ijtimoiy ahamiyati ilmiy jihatdan yoritildi.

OMOTENASHI

Omotenashi (おもてなし) yapon madaniyatining eng muhim tushunchalaridan biri bo‘lib, samimiy, beg‘araz va chin dildan ko’rsatiladigan mehmondo’stlikni anglatadi. Ushbu so‘z ikki xil talqinga ega. Birinchi talqinga ko’ra, u "omote" (表 – tashqi ko‘rinish, oshkoralik) va "nashi" (無し – yo‘qlik) so’zlaridan tashkil topgan bo‘lib, "ikkiyuzlamachilikning yo’qligi", ya'ni mehmonni sof niyat va samimiylik bilan kutib olish ma’nosini bildiradi. Ikkinchi talqinga ko’ra, u "motenasu" (持て成す) fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, "mehmonni munosib kutib olish", "eng yaxshi tarzda xizmat qilish" ma’nolarini anglatadi [1;7]. Har ikkala talqin ham omotenashining asosiy mohiyati – samimiylik va beg’araz g’amxo’rlikni ifodalaydi. Omotenashi falsafasining shakllanishi qadimgi Yaponiya madaniyati va, ayniqsa, XVI asrda rivojlangan choy marosimi (sadou) bilan uzviy bog’liq. Choy marosimining buyuk ustasi Sen no Rikyou ushbu an’anani mukammallashtirib, uni nafaqat choy ichish marosimi, balki insonning axloqiy va estetik kamolotini ifodalovchi madaniy tizimga aylantirdi [3;20]. U ilgari surgan wa (uyg’unlik), kei (hurmat), sei (poklik) va jaku (xotirjamlik) tamoyillari bugungi kunda ham omotenashining asosiy falsafiy negizi hisoblanadi. Choy marosimida mezbon har bir mehmonni yagona va takrorlanmas shaxs sifatida qabul qiladi. Shu sababli marosimning har bir tafsiloti – choy idishlarining tanlanishi, xonaning bezatilishi, gullarning joylashtirilishi, mavsumga mos bezaklar, hatto mehmon yuradigan yo’lak ham oldindan puxta rejalashtiriladi. Bu jarayon yaponlarning “Ichigo ichie” (一期一会) – "har bir uchrashuv hayotda faqat bir marta sodir bo’ladigan noyob lahzadir" degan falsafasi bilan chambarchas bog’liq. Shu bois mezbon mehmon uchun eng qulay va yoqimli muhit yaratishga intiladi. Vaqt o’tishi bilan omotenashi faqat choy marosimi bilan cheklanib qolmay, yapon jamiyatining barcha sohalariga singib bordi. Ayniqsa, Edo davri (1603–1868) davomida savdo-sotiq va shaharlashuvning rivojlanishi natijasida mehmonxona, restoran va savdo xizmatlarida mijozga alohida e’tibor qaratish an’anasi shakllandi. Bu davrda xaridorga hurmat ko‘rsatish va uning ehtiyojlarini oldindan anglash xizmat ko‘rsatish madaniyatining muhim mezoniga aylandi. Bugungi kunda omotenashi Yaponiyaning xizmat ko‘rsatish tizimining ajralmas qismidir. Mehmonxonalar, restoranlar, temiryo’l vokzallari, aeroportlar, do’konlar va boshqa ko’plab muassasalarda mijozga nisbatan samimiy munosabat, xushmuomalalik va yuqori darajadagi xizmat ushbu konsepsiya asosida tashkil etiladi. Xodimlar mijozning talabini aytishini kutmasdan, uning ehtiyojlarini kuzatish va oldindan qondirishga harakat qiladilar. Bu esa yapon xizmat ko’rsatish tizimini dunyodagi eng ilg’or tizimlardan biriga aylantirgan. Omotenashining yana bir muhim jihati shundaki, u moddiy manfaatdan ko‘ra insoniy munosabatlarni ustun qo‘yadi. Xizmat ko‘rsatishda asosiy maqsad qo‘shimcha haq yoki mukofot olish emas, balki mehmonning mamnunligini ta'minlash hisoblanadi[2;25]. Shu sababli Yaponiyada xizmat ko’rsatgan xodimlarga choychaqa berish odati keng tarqalmagan. Chunki sifatli xizmat ularning kasbiy va axloqiy burchi sifatida qaraladi. 2013-yilda Tokio shahrining 2020-yilgi Olimpiya o’yinlariga mezbonlik qilish bo’yicha taqdimotida Takigawa Christel "Omotenashi" so‘zini xalqaro jamoatchilikka tanishtirdi. Shundan so‘ng ushbu tushuncha butun dunyoda Yaponiyaning madaniy ramzlaridan biri sifatida keng e’tirof etila boshladi. Natijada omotenashi nafaqat milliy qadriyat, balki Yaponiyaning xalqaro imijini mustahkamlovchi muhim omilga aylandi [4;37].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, omotenashi konsepsiyasi yapon jamiyatida oddiy mehmondo’stlik tushunchasidan ancha keng mazmunga ega bo‘lib, u yapon xalqining tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarini o’zida mujassamlashtiradi. Tahlillar davomida omotenashining shakllanishida choy marosimi, Sen no Rikyou tomonidan ilgari surilgan wa, kei, sei, jaku tamoyillari hamda yaponlarning estetik qarashlari muhim o’rin tutishi aniqlandi [5;30].Tadqiqot natijalari Takie Sugiyama Lebraning yapon jamiyatida hurmat, kamtarlik va

ijtimoiy mas'uliyat insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosini tashkil etishi haqidagi qarashlarini tasdiqlaydi. Biroq mazkur maqolada omotenashi nafaqat ijtimoiy munosabatlar, balki xizmat ko’rsatish madaniyati va mamlakatning xalqaro imijini shakllantiruvchi omil sifatida ham tahlil qilindi. Shuningdek, olingan natijalar Joy Hendryning yaponlarning kundalik hayotida marosimlar va odob-axloq me’yorlari muhim o‘rin egallashi haqidagi ilmiy xulosalari bilan hamohangdir. Biroq ushbu tadqiqotda omotenashining zamonaviy turizm, mehmonxona, transport va savdo sohalaridagi amaliy ko‘rinishlari alohida misollar orqali yoritildi. Bu esa konsepsiyaning faqat madaniy meros emas, balki zamonaviy iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish tizimining ham muhim elementi ekanligini ko’rsatadi. Roger J. Davies va Osamu Ikeno omotenashini yapon milliy xarakterining muhim jihati sifatida baholagan bo’lsalar, mazkur tadqiqot ushbu konsepsiyaning globallashuv sharoitida ham o’z ahamiyatini saqlab qolayotganini ko’rsatdi [5;30]. Ayniqsa, mijoz ehtiyojlarini oldindan anglash, mayda tafsilotlarga e’tibor berish va samimiy xizmat ko’rsatish tamoyillari Yaponiyaning xalqaro nufuzini oshirishda muhim rol o’ynashi aniqlandi. Tahlillar shuni ko’rsatdiki, omotenashining asosiy farqli jihati uning beg’arazlik tamoyiliga asoslanishidir. G‘arb mamlakatlarida xizmat sifati ko’proq iqtisodiy manfaat va mijoz qoniqishi bilan bog’liq bo‘lsa, Yaponiyada xizmat ko’rsatish insoniy hurmat va axloqiy burch sifatida qaraladi. Aynan shu xususiyat omotenashini boshqa mehmondo’stlik konsepsiyalaridan ajratib turadi [6;20]. Natijalar shuni ko’rsatadiki, omotenashi bugungi kunda ham Yaponiya jamiyatining ajralmas qismi bo’lib qolmoqda. U nafaqat milliy madaniyatni saqlashga, balki turizm, xizmat ko’rsatish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari omotenashini o’rganish madaniyatshunoslik, sotsiologiya, tilshunoslik hamda turizm yo’nalishlarida olib boriladigan kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy asos bo’lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari omotenashi konsepsiyasining yapon jamiyatida oddiy mehmondo’stlikdan ancha kengroq mazmunga ega ekanini ko’rsatdi. U tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog’liq bo‘lib, choy marosimi, Sen no Rikyū ilgari surgan wa, kei, sei, jaku tamoyillari hamda yapon estetik qarashlari uning shakllanishida muhim o’rin tutadi. Tahlillar omotenashining yaponlarning kundalik hayoti, xizmat ko’rsatish madaniyati va xalqaro imijini shakllantirishdagi ahamiyatini tasdiqladi. Ayniqsa, mijoz ehtiyojlarini oldindan anglash, mayda tafsilotlarga e’tibor berish va samimiy xizmat ko‘rsatish tamoyillari ushbu konsepsiyaning asosiy xususiyatlari sifatida namoyon bo‘ldi. Bu jihatlar omotenashini boshqa mehmondo’stlik shakllaridan ajratib turadi. Shuningdek, omotenashi bugungi globallashuv sharoitida ham o’z dolzarbligini yo’qotmaganini ko’rsatdi. U turizm, mehmonxona, transport va savdo sohalarida amaliy ahamiyat kasb etib, Yaponiya madaniyatining xalqaro miqyosda tanilishiga xizmat qilmoqda. Shu bois omotenashini o’rganish madaniyatshunoslik, sotsiologiya, tilshunoslik va turizm yo’nalishlarida olib boriladigan kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo’lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davies, R. J., & Ikeno, O. The Japanese Mind: Understanding Contemporary Japanese Culture. Tokyo: Tuttle Publishing, 2002.
2. Hendry, J. Understanding Japanese Society. 5th ed. London: Routledge, 2019.
3. Lebra, T. S. Japanese Patterns of Behavior. Honolulu: University of Hawai'i Press, 1976.
4. Nitobe, I. Bushido: The Soul of Japan. Tokyo: Kodansha International, 2002.

5. Okakura, K. The Book of Tea. New York: Dover Publications, 1964.
6. Richie, D. The Japanese Way: Aspects of Behavior, Attitudes, and Customs of the Japanese. Tokyo: Tuttle Publishing, 2003.
7. Suzuki, D. T. Zen and Japanese Culture. Princeton: Princeton University Press, 1970.

FOYDALANILGAN INTERNET ILOVALAR RO'YXATI

1. Japan National Tourism Organization (JNTO). https://www.japan.travel/
2. Ministry of Foreign Affairs of Japan (MOFA). https://www.mofa.go.jp/
3. Japan House. https://www.japanhouse.jp/
4. Nippon.com – Discover Japan. https://www.nippon.com/
5. Web Japan. https://web-japan.org/
6. The Japan Times. https://www.japantimes.co.jp/